

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

---

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

Farg'ona,  
2022.

<b>T.Egamberdiyeva</b> Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	7
<b>R.Safarova, M.Abdullayev</b> Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari .....	11
<b>J.Obidov</b> Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati .....	16
<b>F.Madraximova</b> Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida .....	21
<b>X.Tojiboyeva</b> O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	26
IQTISODIYOT	
<b>M.Yuldasheva, A.Kolkanatov</b> Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing .....	29
<b>S.Ismoilova</b> Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi .....	34
FALSAFA, SIYOSAT	
<b>A.Yuldashov</b> Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'рни .....	39
<b>D.Raxmatova</b> Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida) .....	47
TARIX	
<b>B.Matboboyev, A.Aloxunov</b> Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari .....	53
<b>S.To'raxo'jayev</b> Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan .....	58
<b>R.Ahmedov</b> Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) .....	63
<b>Sh.Jumayev</b> Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun .....	70
<b>I.Xo'jaxonov</b> Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi .....	74
<b>A.Sarsenbayev, N.Turambetov</b> Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) .....	78
<b>R.Akbarov</b> Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi.....	85
<b>R.Murodaliyev</b> So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida.....	92
<b>N.Turambetov</b> Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim.....	98
<b>X.Ergasheva</b> 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi.....	103
<b>Sh.Xonimov</b> Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri .....	109

## QIZ BOLALARDA IJTIMOY FAOL SHAXS SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО АКТИВНЫХ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ У ДЕВОЧЕК

### PEDAGOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF SOCIALLY ACTIVE PERSONALITY QUALITIES IN GIRLS

Egamberdiyeva Turg'unoy Axmadjonovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Egamberdiyeva Turg'unoy Axmadjonovna

– Farg'ona davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.

#### Annotatsiya

*Mazkur maqolada mamlakatimizdagi qiz bolalarni sog'lom va barkamol etib ulg'aytirish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik jihatlari, ularni ijtimoiy himoya etishdagi qonunchilikning rivojlanishi kabi yo'nalishlar tahlil etilgan.*

#### Аннотация

*В данной статье проанализированы педагогические аспекты воспитания здоровых и гармонично развитых девочек, реализации их творческого и интеллектуального потенциала, формирования социально активных качеств личности, развития законодательства в области социальной защиты.*

#### Abstract

*This article analyzes such directions as the development of healthy and harmonious development of girls in our country, the realization of their creative and intellectual potential, pedagogical aspects of the formation of socially active personality qualities, the development of legislation in their social protection.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich sinf, oila va maktab, ijtimoiy faol shaxs, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, o'quvchi qizlar, pedagogik jarayon, ijobiy fazilatlar.*

**Ключевые слова:** *начальный класс, семья и школа, социально активная личность, учитель начальных классов, ученицы, педагогический процесс, положительные качества.*

**Key words:** *primary school, family and school, socially active person, primary school teacher, student girls, pedagogical process, positive qualities.*

#### KIRISH

Respublikamizda qizlarni sog'lom va barkamol etib shakllantirish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, XXI asr talablariga to'liq javob bera oladigan, har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga etkazish uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash[14], shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qaroriga ko'ra, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" qabul qilindi[15]. Unga ko'ra, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyshta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash ko'rsatib o'tilgan.

Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi tarbiyaga yangicha va tizimli yondashuvni taqozo etmoqda. Bu esa qizlardagi ijobiy fazilatlarini shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yuqori pog'onalarga ko'tarishni talab etadi. Bu haqda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qayd etganidek: "Har qanday mustaqil davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Shu maqsadda biz boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarida ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirish doirasida

umumta'lim maktablarida birinchi marta "Tarbiya" fanini joriy etmoqdamiz"[1], – deya ta'kidlab o'tgani bejiz emas. Binobarin, mazkur yo'nalish doirasida amalga oshiriladigan ishlar o'zining istiqboldagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qizlar yoshlikdan ijtimoiy faol shaxs sifatlarini egallasa, jamiyatda va oilada o'z o'rniga ega bo'ladilar. Bu borada mamlakatimizda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, xotin-qizlarda jamoatchilik, siyosat, huquq-tartibot, ishlab chiqarish, ta'lim, sanoat, tadbirkorlik, boshqaruv sohalarida o'ziga ishonchni hamda faollikni oshirishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz kerakki, har bir millatning kelajagini ta'minlashda qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish zarur.

Respublikamizda o'quvchi qizlarni ijtimoiy faol shaxs sifatlarini tarbiyalash masalalari bo'yicha olimlardan F.Abdurahimova[2:158], Z.E.Azimova[3:84], O.Bo'riev[4:76], N.Dilova[5], M.Inomova[6:152], Q.Q.Quronboyev[8:155], M.Quronov[9:363], U.Q.Maqsudov[10:163], U.Mahkamov[11:32], T.Egamberdiyeva[13:3-7] va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ular o'z tadqiqotlarida o'quvchi qizlarning ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik, ijtimoiy-perseptiv jihatlarini yoritib berishga harakat qilganlar.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qiz bolani tarbiyalash – uzoq va izchil davom etadigan gender pedagogik jarayon. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zining pedagog, murabbiy, ustoz sifatidagi kompetensiyalarini yaqqol namoyon qiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisidan bu ishni izchil ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish sifatida har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, oilaviy pedagogik muhitini yaxshi bilib, o'quvchilarning qiziqishlarini o'rganib, ulardan ustalik bilan foydalana olishi kerak[12:184].

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'yiluvchi ma'naviy talablarning birligi, xatti-harakatlarning o'zaro mosligi, biri-birini to'ldirishi, erishilgan ma'naviy-tarbiyaviy yutuqlarni mustahkamlash hamda uchraydigan muammolarni birgalikda, hamjihatlikda hal qilish va boshqalar pirovard natijada boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarining ijtimoiy faolligida namoyon bo'ladi. Bunda boshlang'ich sinf rahbarining zimmasiga yuklatilgan vazifalardan biri – o'quvchilarning ota-onalari bilan doimiy aloqa o'rnatish, ularning turmush sharoiti, oilaviy ma'naviy muhitini doimiy o'rganish va uni takomillashtirishda ota-ona bilan hamkorlik qilishi belgilangan. O'quvchining xulqi, uyda, maktabda, ko'chada, mahalla-kuyda, jamoat joylarida o'zini tutishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ayriboshlab turish sinf rahbarini ham, ota-onani ham, tarbiyalanuvchining shaxsi, ma'naviyati to'g'risida obyektiv ma'lumotlar bilan ta'minlash turadi.

O'zining ijtimoiy hamkori bo'lgan oilaga pedagogik madaniyatni ko'tarishga doimiy g'amxo'rlik qilish maktabning ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri. Ana shu maqsadda maktabda ota-onalarning qizlar tarbiyasiga oid pedagogik bilimlarini oshirishga qaratilgan ma'ruzalar, suhbatlar, maslahatlar tashkil qilib turilishi muhimdir. Bu maktab va oilaning ma'naviy-ma'rifiy hamkorligida maktab tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Ota-onalar ham o'z navbatida maktab hayotiga o'z hissalarini qo'shib bormoqdalar. Amaliyotda bu hamkorlik ishlarini turli uchrashuvlar o'tkazish, to'garaklarni jihozlash, ko'rgazmali qurollar, asbob-uskunalar yasash, sayr-sayohatlar tashkil qilish, suhbatlar o'tkazish, tug'ilgan kunlarni nishonlash, maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish, yordam va maslahatlar bilan ko'maklashmoqdalar.

Oila va maktab – boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarining ijtimoiy faolligini oshirishning bosh bo'g'inidir. Bu omil yaxlit tarbiyaviy jarayonning bir-birini to'ldiruvchi tarkibiy qismlarini hosil qiladi. Ya'ni oila – bolaga norasmiy, qondosh-jondoshlik rishtalari, aloqalari orqali, maktab esa davlatning ixtisoslashgan, maxsus ta'lim-tarbiyaviy muassasasi sifatida ta'sir ko'rsatadi[7:16].

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, ayniqsa, qiz bolalarning o'zaro munosabatlariga, gaplashishlariga, muomala qilish ehtiyojiga loqaydlik bilan qaramasligi kerak. U suhbatlashish uchun sinf jamoasi bilan ham har bir qiz bola bilan gaplashish uchun ham hamisha vaqt topishi lozim. Chunki, ayniqsa, qiz bolalar o'qituvchining o'zlariga munosabatini hamisha aniq his qiladilar, sezgirlik bilan munosabatda bo'ladilar. Ular o'z vazifasini kundalik uy vazifalarini bajarish yuzasidan topshiriqlar berishdangina iborat qilib qo'yadigan o'qituvchi bilan o'z fikrlarini, taassurotini hech qachon o'rtoqlashmaydilar. Bu esa, sinfda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasiga zarar etkazadi.

Bolalar boshlang'ich sinf o'qituvchisini yaqin do'st, sirdosh, ular bilan bir xil qiziqishlarga ega, ahil ishlay, yashay oladigan murabbiy deb bilishlari kerak. Ayniqsa, qiz bolalar nohaqlikka nisbatan

## PEDAGOGIKA

juda sezgir bo'ladilar. Qiz bolalarga nisbatan qilingan qo'pollik, adolatsizlik ularning xarakterida salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun o'quvchilarda xarakterni tarbiyalashning eng asosiy shartlaridan biri – talablarning aniqligi hamda bolaning o'z kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchdir. Ayniqsa, qiz bolalarning o'ziga, o'z kuchiga ishonmasligi juda xavfli bo'lib, bu odatda o'qituvchi, onalarning qiz bolaga "latta, landovur, hech narsani eplay olmaydi", deb ko'p gapirishlari oqibatida paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda, qiz bolada o'z-o'ziga, o'z imkoniyatlariga ishonchsizlikni paydo qilish – boshlang'ich sinfda ma'naviy-axloqiy tarbiyada yo'l qo'yiladigan eng yomon pedagogik nuqson hisoblanadi. Sinf rahbari qiz boladagi ijobiy fazilatlarini topa olishi hamda ulardan mahorat bilan foydalanish uchun o'quvchi qizning irodaviy kuch-g'ayratini ustalik bilai rag'batlantirib turishi, unga o'z vaqtida maslahat va ish bilan yordamlashishi, o'z imkoniyatlarini bilib olishida ko'maklashishi lozim.

Yevropa va deyarli barcha ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarda qiz bola tarbiyasi, asosan erkinlikka asoslangan. Ular qizlarni iqtisodiy va ijtimoiy erkin qilish, oila borasida ham o'rmini topishida asosiy omil deb biladilar. Ayniqsa, qizlar tarbiyasida ularning o'z-o'ziga ishonch bilan o'sishi asosiy masala sifatida qaraladi. Ana shu metodik xulosalardan kelib chiqib, qizlar tarbiyasida eng samarali metodlar sifatida **maqdamoq** – bolani uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirmoq, yaxshi qilib ko'rsatmoq; **nasihat** – sokin, xayrixohlik vaziyatda bolani yaxshi yo'lga solish, ta'lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o'git; **ovutmoq** - bolaning, uning oilasining boshiga biror kulfat tushganda unga tasalli berib yupatmoq, ovuntirmoq, yig'lashdan to'xtatmoq, **odatlantirmoq** - odob me'yorlarini mashq qildirish. Masalan, salomlashish, murojaat qilish, mehribonlik ko'rsatish va hokazolarga odat paydo etmoq, o'rgatmoq; **oqlamoq** - shunday vaziyatlar bo'ladiki, qiz bola yil bo'yi ajoyib xulq-atvor, o'git namunalarini ko'rsatib keladi-yu, bilib-bilmay bir xatoga yo'l qo'yadi. Masalan, birov bilan urishib qoladi; hasharga kelmay qoladi yoki kechikadi va h.k. Shunday holda o'qituvchi – sinf tarbiyachisi uni (oldingi namunali xulqi hurmati) oqlamog'i kerak; **so'ramoq** - bolaning ilmiy va axloqiy bilimlari haqida ma'lumot olmoq, tekshirmoq, norasmiy imtihon qilmoq; **talab** – tarbiyalash maqsadida undan biror narsani qat'iyat bilan so'rab turish; **tasalli bermoq** – muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, uni yupatish, ko'ngil ko'tarish uchun gapirmoq, ish-harakat qilmoq. Sinf qizlarida uchrab turuvchi ijobiy xulq namunalarini sifatlamoq; **ta'kidlamoq** – qiz bolalar bilan o'tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmunni uqtirib, tayinlab bermoq; **taqdirlamoq** – qiz bolaning yaxshi xulqlarini qadrlab, munosib baholab, jamoada uning qadri bor ekanligini sezdirmoq; **taqiqlamoq** – tarbiyaviy maqsadda qiz bolaga biror narsani man etmoq; tahsinlamoq - "balli", "ofarin" kabi so'zlar bilan qarshi olmoq, maqtab, yuksak baholash; **tenglashtirmoq** – qiz biror tahsinga sazovor ish qilganda uning hatti-harakatini hurmatli, aziz ayollar, yaxshilar xulqiga qiyoslash, yomon ish qilganida esa ertak, kitob, filmlarda "yomon" deb nom qozongan ayol-qizlar xulqiga o'xshatmoq, taqqoslamoq; **tergamoq** – vaqti-vaqti bilan qiz bolaga yetarli darajada qattiqqo'llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo'ya xatti-harakatlari uchun koyib, noto'g'ri yo'lidan qaytarib turish; **uyaltirmoq** – noma'qul qilg'i uchun qiz bolaga noqulaylik tug'dirish, hijolat, andisha, nomus qildirmoq; **shavqlantirmoq** – qiz bolaning xulqi, o'qishidagi muvaffaqiyatlarini aytib, kelajakka ishontirish, mamnun qilish. Xulqidan ruhiy ko'tarinkilik bilan zavqlanmoq va zavqlantirmoq, qanoatlantirmoq; **erkalatmoq** – qiz bolani esa "mehribonim", "oppog'im", "onajonim" deya silab-siypalamoq, suymoq; **yalinmoq** – agarda boshqa xil usul kor qilmasligiga ko'z yetsa, qiz bola qalbida mehrni yangilash, uyg'otish maqsadida uni biror ishni qilish yoki qilmaslikni so'rab iltimos qilmoq, o'tinib so'ramoq; **yarashtirish** – oilada, sinfda ba'zan uchraydigan o'zaro urush-janjalni to'xtatish, urishmaslikka ahd qildirmoq, munosabatni yaxshilamoq, totuvlashtirmoq; **o'ynamoq** – qiz bola bilan unda ijobiy sifatlarni rivojlantirish, salbiy sifatlarni yo'qotish maqsadiga yo'naltirilgan ma'lum qoida va usullar bilan ijro etiladigan o'yinlarni birga o'ynash; **o'rgatmoq** – bolaga biror ish harakat (masalan, choy damlashni, jamoat joylarida, mehmondorchilikda, hayotiy vaziyatlarda o'zini tutishni, gapirishni va h.k.) bajarish usulini, yo'l-yo'rig'ini tushuntirmoq, bildirmoq va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilmoq; **qaytarmoq** – qiz bola jahli chiqib, qizishib biror yomon ishni qilishga qaror qilsa yoki yuz ko'rinishi, vajohati shuni ko'rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo'ya ishdan, hatti-harakatdan o'zini tutishga undamoq, tiymoq; **qiziqchilik qilmoq** – qiz bola bilan munosabatda rasmiyatchilikni, psixologik tanglikni bartaraf qilish maqsadida mavzuni burib yuborish, hazil qilish, bolani kuldirish; **sovg'a berish** – bayram, hayitlar munosabati bilan imkon darajasida tuhfarlar qilib, uning mehrini yangilab, oshirib turish; **homiylilik qilish** – qiz bola biror soha(kitobxonlik, bichish-tikish, til o'rganish)ga

qiziqib, berilib shug'ullansa, bu ishda unga yordam, madad berish, muhofaza etish shular jumlasidandir.

### XULOSA

Qizlarni jamiyatning maqsadlari va g'oyalari hamda jinsiy roliga mos ravishda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan maqsadli pedagogik ta'sir qilish tamoyiliga amal qilish zarurdir. Shunday ekan, qizlarda insonparvarlikni tarbiyalash uchun qo'llanilayotgan tarbiya usullarining o'zi insonparvar va gender xususiyatga ega bo'lishi kerak. Buning uchun qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini o'rganish, bajarish istagi va qobiliyatini rivojlantirish, mos faoliyat turlarini tashkil qilish, har bir qiz bolaga g'amxo'rlik mavjud bo'lgan ijtimoiy pedagogik muhitni tashkil etish zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir qiz boladagi ijobiy fazilatlarini topa olishi va ulardan mahorat bilan foydalanishi uchun uning tashabbus, irodaviy kuch-g'ayratini ustalik bilai rag'batlantirib turishi, o'z maslahati va namunasi bilan yordamlashishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarida shakllantirilayotgan har bir malaka va ko'nikma to'g'ri o'rgatilishi, doimo takrorlanib, mustahkamlab borilishi lozim. Bunda: malaka va ko'nikmalarni o'rgatishda bu qoida, ko'nikma hamda malakalarni qizlar qanday bajarishini, o'g'il bolalar qanday bajarishidagi gender farqlarni ko'rsatish, avval bir necha marta ko'rsatish, qiz bolalarga ularni to'g'ri bajarishga yordam berish, bu malaka hamda ko'nikmalarni doimo takrorlab mustahkamlab turish, boshlang'ich sinf o'quvchi qizlarining o'zaro umummadaniy, gender xulq-atvor, o'zaro ijobiy ma'naviy-axloqiy muomala muhitini ta'minlash lozim.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <http://uz.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oliy-25-01-2020>. www.dissercat.com
2. Abdurahimova F.Yu. Mahallada qizlarni sog'lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlashning pedagogik asoslari: Ped.fan.nomz. diss. –T.: 2007.
3. Azimova Z.E. Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida): Ped.fan.dok...diss. – Nukus: 2018.
4. Bo'riev O., Shoymardonov I., Nasriddinov Q. O'zbek oilasi tarixidan. 1998.
5. Dilova N.G. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Nomz.diss.- Nukus.: 2018.
6. Inomova M.O. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – Toshkent: TDPU, 2000.
7. Yo'ldoshev H.Q. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi. – T.: O'qituvchi. 2008.
8. Quronboev Q.Q. Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (yoshlar tashkilotlari misolida). Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2000.
9. Quronov M. O'zbekiston umumta'lim o'rta maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 1998.
10. Maqsudov U.Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi vositasida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik tizimi. Nomz.diss. – Namangan.: 2021.
11. Mahkamov S. Islom dini va oila tarbiyasi. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2000.
12. Mahmatmurodov Sh.M., Ziyadullaev X.Z., Nuriddinova M.I. Boshlang'ich ta'limning milliy, istiqloliy muammolari. // Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: O'zPFITI. 1996.
13. Egamberdiyeva T. O'zbekiston Respublikasi ma'naviy hayotida ayollar faolligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. P.f.d.avt. – T.: 2005.
14. <https://lex.uz/docs/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.05.2019 yildagi PQ-4307-son.
15. <https://lex.uz/uz/docs/> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son.